Uzbekistan Airways bilan Batumiga sayohat qiling

2024 1 Fevral

Gamarjoba, Batumi! Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Toshkentdan Gruziyaning sohilboʻyi shahriga mavsumiy aviaqatnovlarni tiklamoqda. Hoziroq aviachiptalarni sotib oling va oʻzingizga qiziqarli sayohatni hadya eting.

Bu yozda biz sizni Gruziyani kashf qilishga va boshqa olamga olib boradigan jozibali plyajlari, ziravorlarga boy taomlari va tarixiy joylari bilan boy boʻlgan maftunkor dengiz boʻyidagi shahar – Batumiga borishni taklif qilamiz.

Batumining mahalliy aholisi uni nimaga qiyoslashini bilasizmi? Yangi tayyorlangan sharobga. Bu shahar sokin, betashvish, maftunkor, xushboʻy va oʻzining goʻzalligi bilan hayratga soladi. Yoqimli quyosh nurlari va iliq dengiz bu yerga har yili minglab sayyohlarni jalb qiladi. Uzbekistan Airways bilan siz ham sayyohlardan biriga aylanishingiz mumkin.

29-maydan boshlab aviakompaniya yana Toshkent – Batumi – Toshkent yoʻnalishi boʻyicha mavsumiy parvozlarni amalga oshira boshlaydi. Gruzin kurortiga aviaqatnovlar haftasiga ikki marta, chorshanba va shanba kunlari quyidagi jadvalga muvofiq amalga oshiriladi:

- Toshkentdan joʻnab ketish Toshkent vaqti bilan soat 10:10 da;
- Batumiga yetib kelish Batumi vaqti bilan soat 12:55 da;
- Batumidan joʻnab ketish Batumi vaqti bilan 14:25 da;
- Toshkentga yetib kelish Toshkent vaqti bilan soat 18:40 da.

Eslatib oʻtamiz, Uzbekistan Airways Toshkentdan Tbilisiga seshanba va juma kunlari ham muntazam aviaqatnovlarni amalga oshiradi. Gruziyaga bir marta tashrif buyurganingizdan soʻng, siz bu mamlakatning mehmondoʻstligini uzoq vaqt eslab yurasiz.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy www.uzairways.com saytidan 3% chegirma bilan, Uzbekistan Airways mobil ilovasida, aviakompaniya agentlaridan va Uzbekistan Airways Sales filialining Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli koʻchasi, 9-uyda joylashgan yangi manzilida xarid qiling.